URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.FM.55.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Azamatov Azizbek Shavkatovich

MOSLANGAN MANBALI KAUP-BOUSINESQ VA DISKRET SINUS-GORDON TENGLAMALAR SISTEMALARINI TEZ KAMAYUVCHI FUNKSIYALAR SINFIDA INTEGRALLASH

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

URGANCH – 2023

UDK: 517.957

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.FM.55.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Azamatov Azizbek Shavkatovich

MOSLANGAN MANBALI KAUP-BOUSSINESQ VA DISKRET SINUS-GORDON TENGLAMALAR SISTEMALARINI TEZ KAMAYUVCHI FUNKSIYALAR SINFIDA INTEGRALLASH

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

URGANCH – 2023

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/FM746 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (резюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ik-mat.urdu.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Babajanov Bazar Atajanovich** fizika-matematika fanlari doktori
Rasmiy opponentlar:	**Yaxshimuratov Alisher Bekchanovich** fizika-matematika fanlari doktori, **Baltayeva Umida Ismoilovna** fizika-matematika fanlari doktori
Yetakchi tashkilot:	**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.FM.55.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil 23 avgust soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 220100, Urganch sh., H.Olimjon ko‘chasi, 14-uy. Tel.: (+99862) 224-66-11, faks: (+99862) 224-67-00, e-mail: ik-mat.urdu@umail.uz)

Dissertatsiya bilan Urganch davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch sh., H.Olimjon ko‘chasi, 14-uy. Tel.: (+99862) 224-67-00) e-mail: arm@urdu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil “___”_________ kuni tarqatildi.

(2023 yil __ dagi __ raqamli reestr bayonnomasi).

B.I.Abdullayev
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy
kengash raisi, f.-m. f.d.

A.A.Reyimberganov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, f.-m. f.n.

S.A.Imomqulov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, f.-m. f.d.

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan ko‘plab ilmiy-amaliy tadqiqotlar matematik fizikaning muhim amaliy tatbiqlariga ega bo‘lgan nochiziqli evolyutsion tenglamalar sistemalari va ularning diskret analoglari bilan tavsiflanadi. Ushbu turdagi nochiziqli evolyutsion tenglamalar orasida maxsus yechimlarga ega tenglamalar sinfi, soliton yechimlarga ega tenglamalar alohida ajralib turadi. Masalan, gidromexanika, qattiq jismlar fizikasi, plazma fizikasida giperbolik sirtlar, ion akustik solitonlar va shu kabi masalalarni o‘rganishda Kaup-Bousinesq va sinus-Gordon tenglamalari muhim rol o‘ynaydi. Shu boisdan Kaup-Bousinesq va sinus-Gordon tenglamalarining soliton yechimlarini topish masalasi zamonaviy matematik fizikaning muhim masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Hozirgi kunda jahonda manbali nochiziqli evolyutsion tenglamalarni integrallash keng tadqiq etilmoqda. Odatda manbasiz tenglamalar model tenglamalar bo‘lib, ular ideal sharoitlarda keltirib chiqarilgan. Tabiiy jarayonlarda qo‘shimcha ta’sirlarni inobatga olish zarurati paydo bo‘ladi. Bunday jarayonlarda nochiziqli evolyutsion tenglamalar sistemalarini o‘rganishda tenglama tarkibiga yuklangan hadlarni va moslangan manbalarni kiritishga ehtiyoj tug‘iladi. Shu sababli bu jarayonlarning matematik modeli sifatida yuklangan hadli yoki moslangan manbali nochiziqli evolyutsion tenglamalar hosil bo‘ladi va bu tenglamalarning ayrim yechimlari soliton to‘lqinlarni tavsiflaydi. Hozirgi kunda nochiziqli to‘lqinlar dinamikasining asosiy ob’ektlaridan biri solitonlardir. Shu sababli tez kamayuvchi funksiyalar sinfida moslangan manbali, yuklangan hadlarga ega Kaup-Bousinesq va diskret sinus-Gordon tenglamalar sistemalarini integrallash va ularning soliton yechimlarini topish algoritmlarini keltirib chiqarish maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tatbiqiga ega bo‘lgan sohalarida ilmiy tadqiqotlar olib borish va ularning natijadorligi, amaliy ahamiyatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, nochiziqli to‘lqinlar nazariyasi, sochilish nazariyasining to‘g‘ri va teskari spektral masalalari va xususiy hosilali differensial tenglamalarning amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalarini o‘rganishga e’tibor kuchaydi. Buning natijasida matematik fizikaning nochiziqli evolyutsion tenglamalari uchun qo‘yilgan Koshi masalasini to‘g‘ri va teskari spektral masalalar usuli yordamida integrallash bo‘yicha salmoqli natijalarga erishildi.

“Funksional analiz, algebra, differensial tenglamalar, matematik fizika, matematik modellashtirish, hisoblash matematikasi va diskret matematika, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika” ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha halqaro standartlar darajasidagi ilmiy izlanishlar olib borish ilmiy tadqiqot va oliy ta’lim muassasalari faoliyatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi[1]. Ushbu qarorlar ijrosini ta'minlash maqsadida moslangan manbali yuklangan hadli nochiziqli evolyutsion tenglamalar sistemalarini va ularning diskret analoglarini integrallashni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PQ-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018 yil 27 apreldagi PQ-3682-son "Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020 yil 7 maydagi PQ-4708-son "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining IV. "Matematika, mexanika va informatika" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Shturm-Liuvill operatorining kvadratik dastasi uchun teskari spektral masalalar nazariyasining eng muhim natijalari M. Jaulent, I. Miodek, F.G. Maksudov, M.G. Gasimov, G.Sh. Guseynov, A.O. Smirnov, D.H. Sattinger, J. E. Szmigielski, A. Laptev, R. Shterenberg, V. Sukhanov, A.B. Khasanov, A. Kabada, A.B. Yaxshimuratov va B.A. Babajanovlar va boshqa olimlar tomonidan olingan.

Shturm-Liuvill operatorining kvadratik dastasi uchun qo'yilgan sochilish nazariyasining teskari spektral masalalar usuli yordamida D.J. Kaup quyidagi

$$\begin{cases} \eta_\tau = \Phi_{xx} + \beta^2 \Phi_{xxxx} - \varepsilon \cdot (\Phi_x \eta)_x \\ \eta = \Phi_\tau + \dfrac{1}{2}\varepsilon \cdot \Phi_x^2 \end{cases}$$

sayoz suvda to'lqinlarning tarqalishini ifodalovchi tenglamalar sistemasini tez kamayuvchi funksiyalar sinifida to'la integrallanuvchanligini isbotlagan. Shundan so'ng, M. Jaulent and I. Miodeklar tomonidan Kaup sistemasi va uning yuqori tartibli analoglari uchun qo'yilgan Koshi masalasi yechimini tez kamayuvchi funksiyalar sinfida topish algoritmi keltirilgan. V.B. Matveev va I.V. Yavorning ishida, Kaup

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 maydagi "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4708-son qarori.

sistemaning chekli zonali, ko‘p fazali, Riman teta-funksiyalari orqali ifodalanuvchi kompleks yechimlarini tuzish usuli olingan, bundan tashqari bu sistemaning soliton yechimlari topilgan hamda ularning asimptotikalari o‘rganilgan. A.O. Smirnov, Y.A. Mitropolskiy, N.N. Bogolyubov, A.K. Prikarpatskiy va V.G. Somoylenkolar ishlarida Kaup sistemasining chekli zonali haqiqiy yechimlari o‘rganilgan. Davriy funksiyalar sinfida moslangan manbali Kaup tenglamalar sistemasi A. Kabada va A. Yaxshimuratovlar tomonidan yechilgan va yechimning davriyligi hamda x o‘zgaruvchi bo‘yicha analitikligi haqidagi muhim natija olingan.

Diskret sinus-Gordon tenglamasining integrallanuvchiligi Hirota tomonidan ko‘rsatilgan bo‘lib u bu masala uchun Laks juftligini, Beklund almashtirishini va N-soliton yechimlarni topgan. Hirota tomonidan keltirilgan diskterlashtirish sxemasining umumlashmasi Orfanidis tomonidan o‘rganilgan. D.Levi, O.Ragnisco va M. Bruschilarning ishida sochilish nazariyasining teskari masalasi usuli yordamida diskret sinus-Gordon tenglamasining soliton yechimlari keltirib chiqarilgan va bu masala bilan bog‘liq bo‘lgan chiziqli spektral masala L. Pilloni va D. Levining ishida o‘rganilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Urganch davlat universiteti “Amaliy matematika va matematik fizika” kafedrasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq OT-F4-04 (05) “Spektral usulni matritsaviy nochiziqli evolyusion tenglamalarni yechishga tadbiqlari, Yurak-qon tomir tizimining biomexanikasi” (2017-2020 y.) mavzusidagi fundamental ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi:

Moslangan manbali Kaup-Bousinesq va diskret sinus-Gordon tenglamalar sistemalarini sochilish nazariyasining teskari masalalari usulidan foydalangan holda tez kamayuvchi funksiyalar sinfida integrallash. Sochilish nazariyasi berilganlarining vaqt bo’yicha evolyutsiyasini topish va qaralayotgan masalalarni yechish algoritmini keltirib chiqarishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

vaqtga bog‘liq koeffitsiyentli hadlarga ega bo‘lgan Kaup-Boussinesq tenglamalar sistemasini yechish algoritmini keltirib chiqarish;

yuklangan manbali Kaup-Boussinesq turidagi tenglamalar sistemasini integrallash;

moslangan manbali Kaup-Boussinesq tenglamalar sistemasi yechimlariga bog‘liq bo‘lgan Shturm-Liuvill operatorlari kvadratik dastasining sochilish nazariyasi berilganlarining vaqt bo‘yicha o‘zgarish dinamikasini ifodalovchi chiziqli differensial tenglamalarni keltirib chiqarish;

moslangan manbali Kaup-Boussinesq turidagi tenglamalar sistemasiga qo‘yilgan Koshi masalasining yechimini topish;

diskret sinus-Gordon tenglamasi uchun manba qurish algoritmini keltirib chiqarish;

moslangan manbali diskret sinus-Gordon tenglamasiga qo‘yilgan Koshi masalasining yechimini topish.

Tadqiqotning obyekti: manbali Kaup-Boussinesq tenglamalar sistemasi va uning yuqori tartibli analoglari, moslangan manbali diskret sinus-Gordon tenglamasi, diskret Dirak turidagi operator, Shturm-Liuvill operatorining kvadratik dastasi.

Tadqiqotning predmeti. Shturm-Liuvill operatorining kvadratik dastasi va diskret Dirak turidagi operator uchun qo‘yilgan to‘g‘ri va teskari spektral masalalarni moslangan manbali diskret sinus-Gordon, Kaup-Boussinesq va Kaup-Boussinesq turidagi tenglamalar sistemalariga qo‘yilgan Koshi masalasining yechimini topishga tatbiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Nochiziqli soliton tenglamalarni integrallash nazariyasi, sochilish nazariyasining teskari masalasi, integral tenglamalar nazariyasi, oddiy va xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasi, funksional analiz, kompleks o‘zgaruvchili funksiyalar nazariyasidagi usullar qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Shturm-Liuvill operatorlari kvadratik dastasi uchun qo‘yilgan teskari masala usulidan foydalanib, vaqtga bog‘liq qo‘shimcha hadlarga ega bo‘lgan Kaup-Boussinesq tenglamalar sistemasini yechish algoritmi keltirib chiqarilgan;

Shturm-Liuvill operatorlari kvadratik dastasi uchun qo‘yilgan teskari masala usuli yordamida yuklangan hadli Kaup-Boussinesq turidagi tenglamalar sistemasi keltirib chiqarilgan va “tez kamayuvchi” funksiyalar sinfida integrallangan;

moslangan manbali Kaup-Boussinesq tenglamalar sistemasi yechimiga bog‘liq bo‘lgan Shturm-Liuvill operatorlari kvadratik dastasining sochilish nazariyasi berilganlarining vaqt bo‘yicha o‘zarish dinamikasini ifodalovchi chiziqli differensial tenglamalar keltirib chiqarilgan;

Shturm-Liuvill operatorlari kvadratik dastasi uchun qo‘yilgan teskari masala usuli foydalangan holda moslangan manbali Kaup-Boussinesq turidagi tenglamalar sistemasining to‘la integrallanuvchanligi isbotlangan;

diskret Dirak turidagi sistema uchun teskari spektral masala usulini qo‘llab diskret sinus-Gordon tenglamasi uchun manba qurish algoritmi keltirib chiqarilgan;

diskret Dirak turidagi sistema uchun qo‘yilgan teskari spektral masala usuli moslangan manbali diskret sinus-Gordon tenglamasiga qo‘yilgan Koshi masalasini yechimini topishga tatbiq etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari moslangan manbali Kaup-Boussinesq tenglamalar sistemasi, yuklangan hadli Kaup-Boussinesq tenglamalar sistemasi, moslangan manbali diskret sinus-Gordon tenglamasi uchun qo‘yilgan Koshi masalasini yechish algoritmlari keltirib chiqarilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi moslangan manbali Kaup-Boussinesq tenglamalar sistemasi va moslangan manbali diskret sinus-Gordon tenglamalarini integrallashda qo‘llanilgan usullar sochilish nazariyasining teskari masalasi, nochiziqli soliton tenglmalarni integrallash nazariyasi, integral tenglamalar nazariyasi, oddiy differensial va xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasi usullariga tayanganligi hamda matematik mulohazalar va isbotlarning qat’iyligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, olingan ilmiy natijalar plazma fizikasi, qattiq jismlar fizikasi, kvant optikasi, elementar zarrachalar fizikasining masalalarini o‘rganishda qo‘llanilishi mumkin.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati shundan iboratki, olingan ilmiy natijalardan matematik fizikaning turli nochiziqli evolyutsion tenglamalarini tez kamayuvchi funksiyalar sinfida yechishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiyada olingan natijalar quyidagi loyihalarda qo‘llanilgan:

Dissertatsiyada ishlab chiqilgan moslangan manbali Kaup-Bousinesq va moslangan manbali diskret sinus-Gordon tenglamalar sistemalarini yechish algoritmidan Rossiya ilmiy fondi tomonidan qo‘llab quvvatlanadigan 22-11-00196 “Matrix of monodromy and hierarchy of integrable nonlinear equations” mavzusidagi loyihasida 2×2 o‘lchamli matritsaviy koeffitsiyentli Lax juftliklari ierarxiyasini keltirib chiqarishda foydalanilgan (Sankt-Peterburg davlat aerokosmik qurilmalar qurish universitetining 2023 yil 6-apreldagi ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarining qo‘llanilishi nochiziqli evolyutsion tenglamalar iearxiyalarini integrallash imkonini bergan;

Diskret Dirak turidagi sistema uchun teskari spektral masala usulini qo‘llab diskret sinus-Gordon tenglamasi uchun manba qurish algoritmidan OT-F4-04 (05) “Spektral usulni matritsaviy nochiziqli evolyutsion tenglamalarni yechishga tatbiqlari, yurak-qon tomir tizimining biomexanikasi” mavzusidagi grant doirasida umumiy Toda tenglamasi uchun tez kamayuvchi funksiyalar sinfida moslangan manba qurish algoritmini keltirib chiqarishda hamda yuklangan hadli moslangan manbali Korteveg-de Friz tenglamasi uchun qo‘yilgan Koshi masalasini yechimini topish algoritmini keltirib chiqarishda foydalanilgan (Urganch davlat universitetining 2023 yil 12-maydagi ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarining qo‘llanilishi moslangan manbali matritsaviy nochiziqli evolyutsion tenglamalarni integrallash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.

Ushbu tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ishlar chop etilgan bo‘lib, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish bo‘yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy (SCOPUS ma’lumotlar bazasidagi) jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 88 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Qo‘shimcha hadlarga ega bo‘lgan Kaup-Boussinesq tenglamalar sistemasini integrallash”** mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, uning birinchi paragrafida Shturm-Liuvill operatorining kvadratik dastasi uchun teskari masala yechishning Maqsudov-Guseynov usuli haqida zaruriy ma’lumotlar keltirilgan.

Ushbu Shturm-Liuvill operatorlari kvadratik dastasini qaraymiz

$$L(k)y \equiv -y'' + v(x)y + 2ku(x)y - k^2 y = 0,\ x \in R, \tag{1}$$

bunda $v(x)$ va $u(x)$ haqiqiy funksiyalar, $u(x)$ absolyut uzluksiz va ular ushbu shartlarni qanoatlantiradi:

$$\int_{-\infty}^{\infty} |u(x)|\,dx < \infty,\quad \int_{-\infty}^{\infty} (1+|x|)[|v(x)|+|u'(x)|]dx < \infty\,. \tag{2}$$

(2) shart bajarilganda (1) tenglama $Imk \geq 0$ yuqori yarim tekislikka tegishli barcha k lar uchun quyidagi

$$f_+(x,k) = e^{ikx}[1+o(1)],\ x \to +\infty, \tag{3}$$

$$f_-(x,k) = e^{-ikx}[1+o(1)],\ x \to -\infty \tag{4}$$

asimptotikalarni qanoatlantiruvchi $f_+(x,k),\ f_-(x,k)$ yechimlarga ega. Noldan farqli haqiqiy $k \neq 0$ larda, (1) tenglama $f_+(x,k),\ \overline{f}_+(x,k)$ va $f_-(x,k),\ \overline{f}_-(x,k)$ kabi yechimlar fundamental sistemasiga ega bo‘ladi, va bu fundamental sistemalar o‘zaro quyidagi ko‘rinishda bog‘langan:

$$f_+(x,k) = b(k)\, f_-(x,k) + a(k)\, \overline{f}_-(x,k), \tag{5}$$

$$f_-(x,k) = -\overline{b}(k)\, f_+(x,k) + a(k)\, \overline{f}_+(x,k). \tag{6}$$

Bu yerda

$$a(k) = -\frac{1}{2ik} W\left\{ f_+(x,k),\, f_-(x,k) \right\}, \tag{7}$$

$$b(k) = \frac{1}{2ik} W\left\{ f_+(x,k),\, \overline{f}_-(x,k) \right\}. \tag{8}$$

Bunda $a(k)$ funksiya $Imk > 0$ yuqori yarim tekislikka analitik davom qiladi va cheklita $k_1, k_2, ..., k_N$ nollarga ega bo‘ladi hamda quyidagi tengliklar o‘rinli bo‘ladi

$$f_\mp(x,k_n) = B_n^\pm f_\pm(x,k_n), \tag{9}$$

bu yerdagi $B_n^\pm$ kattaliklar x o‘zgaruvchiga bog‘liq bo‘lmaydi.

Ta’rif 1. Ushbu

$$\left\{ r_-(k) = \frac{b(k)}{a(k)},\ k \in R \setminus \{0\},\ k_1, k_2, ..., k_N,\ \gamma_1^-, \gamma_2^-, ..., \gamma_N^- \right\} \tag{10}$$

va

$$\left\{ r_+(k) = -\frac{\overline{b}(k)}{a(k)},\ k \in R \setminus \{0\}, k_1, k_2, ..., k_N, \gamma_1^+, \gamma_2^+, ..., \gamma_N^+ \right\} \tag{11}$$

jamlanmalarga (1) tenglamaning mos ravishda chap va o‘ng sochilish nazariyasining berilganlari deyiladi, bunda $\gamma_n^{\pm}$ quyidagicha aniqlanadi:

$$\gamma_n^{\pm} = B_n^{\pm} \left(\left. \frac{da(k)}{dk} \right|_{k=k_n} \right)^{-1},\ n = 1, 2, ..., N.$$

Chap yoki o‘ng sochilish nazariyasining berilganlari orqali $u(x)$ va $v(x)$ koeffitsiyentlarni tiklash masalasiga (1) tenglama uchun qo‘yilgan teskari masala deyiladi.

O‘ng sochilish nazariyasi berilganlari (11) yordamida $u(x)$ va $v(x)$ koeffitsiyentlarni tiklash masalasini ko‘rib chiqamiz.

O‘ng sochilish nazariyasining berilganlari (11) yordamida $F_+(x)$ funksiyani qurib olamiz

$$F_+(x) = -i\sum_{n=1}^{N} \gamma_n^+ e^{ik_n x} + \frac{1}{2\pi}\int_{-\infty}^{\infty} r_+(k) e^{ikx} dk. \tag{12}$$

Topilgan $F_+(x)$ funksiyani quyidagi integral tenglamalarga qo‘yamiz

$$F_+(x+y) + \overline{K_+^{(0)}(x,y)} + \int_x^{\infty} K_+^{(0)}(x,\tau) F_+(\tau + y) d\tau = 0, x \le y < \infty, \tag{13}$$

$$iF_+(x+y) + \overline{K_+^{(1)}(x,y)} + \int_x^{\infty} K_+^{(1)}(x,\tau) F_+(\tau + y) d\tau = 0, x \le y < \infty. \tag{14}$$

Bu integral tenglamalarni yechib $K_+^{(0)}(x,y)$ va $K_+^{(1)}(x,y)$ larni topamiz. Bular yordamida quyidagi

$$K_+(x,y) = K_+^{(0)}(x,y)\cos\alpha_+(x) + K_+^{(1)}(x,y)\sin\alpha_+(x) \tag{15}$$

funksiyani qurib olamiz. Bu tenglikdagi $\alpha_+(x)$ funksiya quyidagi

$$\alpha_+(x) = \int_x^{\infty} \Phi(s, \alpha_+(s)) ds,\ -\infty < x < \infty \tag{16}$$

Volterra integral tenglamasining yechimidan iborat bo‘ladi. Bu yerda

$$\Phi(s,z) = \left[\mathrm{Re}\, K_+^{(0)}(s,s) - \mathrm{Im}\, K_+^{(1)}(s,s) \right] \sin 2z +$$
$$+2[\mathrm{Re}\, K_+^{(1)}(s,s)]\sin^2 z - 2[\mathrm{Im}\, K_+^{(0)}(s,s)]\cos^2 z. \tag{17}$$

Natijada, $u(x)$ va $v(x)$ koeffitsiyentlar ushbu tengliklar orqali topiladi

$$u(x) = -\alpha_+'(x), \tag{18}$$

$$v(x) = -u^2(x) - 2\frac{d}{dx}\left\{ \left[\mathrm{Re}\, K_+(x,x) \right] \cos\alpha_+(x) + \left[\mathrm{Im}\, K_+(x,x) \right] \sin\alpha_+(x) \right\}. \tag{19}$$

Birinchi bobning ikkinchi paragrafida quyidagi vaqtga bog‘liq koeffitsiyentli hadlarga ega bo‘lgan Kaup-Boussinesq tenglamalar sistemasini

$$\begin{cases} v_t - u_{xxx} + 4vu_x + 2uv_x = \mu(t)v_x, \\ u_t + 6uu_x + v_x = \mu(t)u_x \end{cases} \tag{20}$$

ushbu

$$v(x,t)\big|_{t=0} = v_0(x),\ u(x,t)\big|_{t=0} = u_0(x),\ x \in R, \tag{21}$$

boshlang'ich shartlar bilan qaraymiz, bunda $\mu(t)$ berilgan ixtiyoriy uzluksiz funksiya bo‘lib, $v_0(x)$, $u_0(x)$ funksiyalar haqiqiy va quyidagi shartlarni qanoatlantiradi:

i) $u_0(x)$ absolyut uzluksiz va ushbu tengsizliklar o‘rinli:

$$\int_{-\infty}^{\infty} |u_0(x)|\, dx < \infty,\ \int_{-\infty}^{\infty} (1+|x|)[|v_0(x)| + |u_0'(x)|]dx < \infty; \tag{22}$$

ii) Shturm-Liuvill operatorlarining kvadratik dastasi

$$L(0,k)y \equiv -y'' + v_0(x)y + 2ku_0(x)y - k^2 y = 0,\ x \in R$$

$2N$ ta $k_1(0), k_2(0), ..., k_{2N}(0)$ oddiy xos qiymatlarga ega.

Bu paragrafning asosiy natijasi quyidagi teoremadan iborat.

Teorema 1. *Agar* $v = v(x,t),\ u = u(x,t)$ *funksiyalar juftligi* (20)-(22) *masalaning yechimi bo‘lsa, u holda*

$$L(t,k)y \equiv -y'' + v(x,t)y + 2ku(x,t)y - k^2 y = 0,\ x \in R$$

Shturm-Liuvill operatorlari kvadratik dastasining sochilish nazariyasi berilganlari t *bo‘yicha quyidagicha o‘zgaradi*

$$\dot{r}_+(t,k) = (4ik^2 - 2ik\mu(t))r_+(t,k), \tag{23}$$

$$\dot{k}_n(t) = 0,\ n = 1,2,...,N, \tag{24}$$

$$\dot{\gamma}_n^+(t) = (2ik_n\mu(t) - 4ik_n^2)\gamma_n^+(t). \tag{25}$$

Olingan natijalar sochilish nazariyasi berilganlarining vaqt bo‘yicha evolyutsiyasini to‘la aniqlaydi va (20)-(22) masalani teskari masala usulida yechish imkonini beradi.

Misol. Teorema 1 ning qo‘llanilishini quyidagi misol yordamida ko‘rib chiqamiz. (20)-(22) masalani ushbu

$$v(x,t)\big|_{t=0} = -\frac{2}{ch^2 x},\ u(x,t)\big|_{t=0} = 0,\ x \in R$$

boshlang‘ich shartlarda qaraymiz. $\mu(t) = 2t$ bo‘lsin.

$L(0,k)$ operatorning sochilish nazariyasi berilganlarini topamiz:

$$r_+(k,0) = 0,\ k_1(0) = i,\ \gamma_1^+(0) = 2i.$$

Teorema 1 natijalaridan foydalanib, quyidagiga ega bo‘lamiz

$$r_+(k,t) = 0,\ k_1(t) = i,\ \gamma_1^+(t) = 2ie^{4it-2t^2}.$$

Topilgan sochilish nazariyasi berilganlari yordamida $F_+(x,t)$ funksiyani (12) tenglikdan aniqlaymiz:

$$F_+(x,t) = 2e^{4it-2t^2-x}.$$

$F_+(x,t)$ funksiyani (13), (14) integral tenglamalarga qo‘yamiz va uni yechib quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$K_+^{(0)}(x,x;t) = \frac{-2e^{-2x-2t^2}\cos 4t + 2e^{-4x-4t^2}}{1-e^{-4x-4t^2}} + i\frac{2e^{-2x-2t^2}\sin 4t}{1-e^{-4x-4t^2}},$$

$$K_+^{(1)}(x,x;t) = \frac{2e^{-2x-2t^2}\sin 4t}{1-e^{-4x-4t^2}} + i\frac{2e^{-4x-4t^2} + 2e^{-2x-2t^2}\cos 4t}{1-e^{-4x-4t^2}}.$$

Bular yordamida (17) tenglikdan $\Phi(x,z;t)$ funksiyani aniqlaymiz:

$$\Phi(x,z;t) = -\frac{2\sin(2z+4t)}{sh(2x+2t^2)}.$$

$\Phi(x,z;t)$ funksiyani (16) Volterra integral tenglamasiga qo‘yamiz va uni yechib $\alpha_+(x,t)$ ni topamiz:

$$\alpha_+(x,t) = arctg\left(\frac{th^2(x+t^2)\cdot tg\,2t}{th^2(t^2)}\right) - 2t.$$

Topilgan $\alpha_+(x,t)$ dan foydalanib (15) tenglik orqali $K_+(x,x,t)$ funksiyani qurib olamiz:

$$K_+(x,x,t) = \frac{-2e^{-2x}\cos(4t+\alpha) + 2e^{-4x}\cos\alpha}{1-e^{-4x}} + i\frac{2e^{-4x}\sin\alpha + 2e^{-2x}\sin(4t+\alpha)}{1-e^{-4x}},\ x \neq 0.$$

Natijada (18) va (19) tengliklardan qaralayotgan masalaning yechimi $u(x,t)$ va $v(x,t)$ lar topiladi. Ular quyidagicha bo‘ladi:

$$u(x,t) = -\frac{sh2(x+t^2)\sin 4t}{ch^4(x+t^2)\cos^2 2t + sh^4(x+t^2)\sin^2 2t},$$

$$v(x,t) = -3u^2 - \frac{4ch2(x+t^2)\cos 2(2t+\alpha_+(x,t)) - 4}{sh^2 2(x+t^2)}.$$

Birinchi bobning uchinchi paragrafida yuklangan hadli Kaup-Boussinesq turidagi sistema tez kamayuvchi funksiyalar sinfida integrallangan.

Ushbu yuklangan hadli Kaup-Boussinesq turidagi sistemani

$$\begin{cases} v_t - v_{xxx} - 6uu_{xxx} - 18u_x u_{xx} + 6vv_x + 24vuu_x + 6v_x u^2 = H(t)v_x, \\ u_t - u_{xxx} + 6vu_x + 6v_x u + 30u_x u^2 = H(t)u_x,\ x \in R,\ t > 0 \end{cases} \quad (26)$$

quyidagi boshlang‘ich shartlarda qaraymiz

$$v(x,t)\big|_{t=0} = v_0(x),\ u(x,t)\big|_{t=0} = u_0(x),\ x \in R, \quad (27)$$

Bunda $H(t) = \mu(t)v(0,t)u(0,t)$ bo‘lib, $v_0(x),\ u_0(x)$ funksiyalar (22) shartni qanoatlantiradi.

Ushbu paragrafning asosiy natijasi quyidagi teoremada bayon qilinadi.

Teorema 2. *Agar* $v = v(x,t),\ u = u(x,t)$ *funksiyalar* (26)-(27) *masalaning yechimlari bo'lsa, u holda*

$$L(t,k)y \equiv -y'' + v(x,t)y + 2ku(x,t)y - k^2 y = 0,\ x \in R$$

Shturm-Liuvill operatorlari kvadratik dastasining sochilish nazariyasi berilganlari t *bo'yicha quyidagicha o'zgaradi*

$$\dot{r}_+(t,k) = (8ik^3 - 4kH(t))r_+(t,k), \tag{28}$$

$$\dot{k}_n(t) = 0, \tag{29}$$

$$\dot{\gamma}_n^+(t) = (2ik_n H(t) - 8ik_n^3)\gamma_n^+(t). \tag{30}$$

Ikkinchi bob **"Moslangan manbali Kaup-Boussinesq tenglamalar sistemasini integrallash"** deb nomlangan bo'lib, uning birinchi paragrafida Shturm-Liuvill operatorlari kvadratik dastasi uchun qo'yilgan to'g'ri va teskari masalalarni yechishning Jaulent-Jean usuli haqida zarur ma'lumotlar keltirilgan.

Ushbu Shturm-Liuvill operatorlari kvadratik dastasini qaraymiz

$$L(k)y = -y'' + (V - k^2)y = 0,\ x \in R, \tag{31}$$

bu yerda $V(x,k) = v(x) + 2ku(x)$ hamda $v(x)$ va $u(x)$ funksiyalar kompleks qiymatli funksiyalar bo'lib quyidagi shartlarni qanoatlantiradi:

$$\int_{-\infty}^{+\infty} x^2 \left[|v(x)| + |u'(x)|\right] dx < \infty,\ \int_{-\infty}^{+\infty} |x| \left[|v'(x)| + |u''(x)|\right] dx < \infty. \tag{32}$$

(32) shart bajarilganda, (31) tenglama ixtiyoriy $k \in R$ larda ushbu asimptotikalarni

$$\left[f_1(x,k), g_1(x,k)\right] \sim \left[e^{-ikx}, e^{ikx}\right],\ x \to \infty, \tag{33}$$

$$\left[f_2(x,k), g_2(x,k)\right] \sim \left[e^{ikx}, e^{-ikx}\right],\ x \to -\infty \tag{34}$$

qanoatlantiruvchi $\{f_1(x,k),\ g_1(x,k)\}$ va $\{f_2(x,k),\ g_2(x,k)\}$ Yost yechimlariga ega. Noldan farqli haqiqiy $k \neq 0$ da $\{f_1(x,k), g_1(x,k)\}$ va $\{f_2(x,k), g_2(x,k)\}$ funksiyalar (31) tenglamaning yechimlar fundamental sistemasini tashkil qiladi. Bu yechimlar uchun quyidagi tengliklar o'rinli

$$f_2 = c_{11} f_1 + c_{12} g_1,\ g_2 = d_{12} f_1 + d_{11} g_1, \tag{35}$$

$$f_1 = c_{22} f_2 + c_{21} g_2,\ g_1 = d_{21} f_2 + d_{22} g_2, \tag{36}$$

$$c_{12} = c_{21} = (2ik)^{-1} W[f_1, f_2],\quad c_{11} = -d_{22} = (2ik)^{-1} W[f_2, g_1], \tag{37}$$

$$d_{12} = d_{21} = (2ik)^{-1} W[g_2, g_1],\quad d_{11} = -c_{22} = (2ik)^{-1} W[f_1, g_2], \tag{38}$$

bunda $c_{11}, c_{12}, c_{21}, c_{22}, d_{11}, d_{12}, d_{21}, d_{22}$ funksiyalar x o'zgaruvchiga bog'liq emas hamda $c_{21}(k),\ (Imk < 0)$ funksiya quyi yarim tekislikka analitik davom qiladi. (31) tenglamada $V(x,k)$ o'rniga $V(x, \pm k)$ ni qarasak, u holda (31) ni ikkita tenglama deb qarash mumkin. Shu sababli yuqorida keltirilgan barcha tengliklarda "$\pm$" indeks bor deb tushunamiz. $c_{21}^{\pm}(k)(Imk<0)$ funksiya cheklita $N^{\pm}$ nollarga ega va bu nollarni $k_n^{\pm},\ n=1,2,...,N^{\pm}$ orqali belgilaymiz.

Ta'rif 2. Ushbu

$$\left\{R^{\pm}(k)=\frac{c_{11}^{\pm}(-k)}{c_{21}^{\mp}(-k)},\ k\in R\setminus\{0\},\ k_n^{\pm},\ C_n^{\pm},\ n=1,2,...,N^{\pm}\right\}$$

jamlanmaga (31) tenglamaning sochilish nazariyasining berilganlari deyiladi, bunda

$$C_n^{\pm}=\left[c_{11}^{\pm}(k_n^{\pm})\right]^{-1}\left[i\frac{d}{dk}c_{21}^{\pm}(k)\right]_{k=k_n^{\pm}}.$$

$u(x)$ va $v(x)$ koeffitsiyentlar sochilish nazariyasi berilganlari orqali yagona aniqlanadi.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafida moslangan manbali Kaup-Boussinesq tenglamalar sistemasi uchun sochilish nazaryasi berilganlarining vaqt bo'yicha o'zgarish tenglamasi keltirib chiqarilgan va moslangan manbali Kaup-Boussinesq tenglamalar sistemasi uchun qo'yilgan Koshi masalasini teskari masala usuli yordamida yechish algoritmi keltirilgan.

Quyidagi moslangan manbali Kaup-Boussinesq tenglamalar sistemasini

$$\begin{cases} v_t=u_{xxx}-4vu_x-2uv_x+2\sum\limits_{m=1}^{N}\left[-u_x\varphi_m^2+(k_m-2u)\dfrac{\partial}{\partial x}\varphi_m^2\right], \\ u_t=-6uu_x-v_x+\sum\limits_{m=1}^{N}\dfrac{\partial}{\partial x}\varphi_m^2,\ x\in R,\ t>0, \\ (\varphi_m)_{xx}+\left[k_m^2-v-2k_mu\right]\varphi_m=0,\ m=1,2,...,N \end{cases} \tag{39}$$

ushbu

$$v(x,t)\big|_{t=0}=v_0(x),\ u(x,t)\big|_{t=0}=u_0(x),\ x\in R \tag{40}$$

boshlang'ich va quyidagi normallovchi

$$\int_{-\infty}^{+\infty}(2k_m-2u)\varphi_m^2dx=A_m(t),\ m=1,2,...,N, \tag{41}$$

shart bilan qaraymiz. Bunda $\varphi_1=\varphi_1(x,t),\ \varphi_2=\varphi_2(x,t),...,\varphi_N=\varphi_N(x,t)$ funksiyalar (31) tenglamaning $k_1=k_1(t),\ k_2=k_2(t),...,k_N=k_N(t)$, $\operatorname{Im}k_m<0,\ m=1,2,...,N$ xos qiymatlariga mos keluvchi xos funksiyalari. Hamda $A_1(t),\ A_2(t),...,\ A_N(t)$ lar oldindan berilgan ixtiyoriy uzluksiz funksiyalar. $v_0(x), u_0(x)$ funksiyalar quyidagi shartlarni qanoatlantiradi:

i) $v_0(x)$, $u_0(x)$ funksiyalar kompleks qiymatli funksiyalar bo'lib quyidagi shartlarni qanoatlantiradi:

$$\int_{-\infty}^{\infty} x^2 \left[|v_0(x)| + |u_0'(x)| \right] dx < \infty, \ \int_{-\infty}^{\infty} |x| \left[|v_0'(x)| + |u_0''(x)| \right] dx < \infty, \tag{42}$$

ii) Shturm-Liuvill operatorlari kvadratik dastasi

$$L(0,k)y \equiv -y'' + v_0(x)y + 2ku_0(x)y - k^2 y = 0, \ x \in R$$

chekli N ta oddiy xos qiymatlarga ega.

Qulaylik uchun (39) tenglamani vektor ko‘rinishda yozamiz. Buning uchun quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$$U = \begin{pmatrix} v \\ u \end{pmatrix}, \ G = \begin{pmatrix} G_1 \\ G_2 \end{pmatrix}, \tag{43}$$

$$G_1 = 2\sum_{m=1}^{N} \left[-u_x \varphi_m^2 + (k_m - 2u) \frac{\partial}{\partial x} \varphi_m^2 \right], \ G_2 = \sum_{m=1}^{N} \frac{\partial}{\partial x} \varphi_m^2, \tag{44}$$

$$T^* = \begin{pmatrix} 0 & -\dfrac{\partial^2}{\partial x^2} + 4v - 2v_x \displaystyle\int_x^{\infty} d\tau \\ 1 & 4u - 2u_x \displaystyle\int_x^{\infty} d\tau \end{pmatrix}. \tag{45}$$

U holda (39) sistema quyidagi ko‘rinishda yoziladi:

$$U_t + T^* U_x = G. \tag{46}$$

Ushbu $V(x) = \begin{pmatrix} V_1(x) \\ V_2(x) \end{pmatrix}$ va $W(x) = \begin{pmatrix} W_1(x) \\ W_2(x) \end{pmatrix}$ funksiyalar uchun quyidagi skalyar ko‘paytmani kiritamiz:

$$\langle V(x), W(x) \rangle = \int_{-\infty}^{\infty} [V_1(x)W_1(x) + V_2(x)W_2(x)] dx.$$

Lemma 1. *Agar*

$$\Phi_1^{\pm}(x,k) = \begin{pmatrix} f_1^{\pm}(x,k) \, f_2^{\pm}(x,k) \\ \pm 2k f_1^{\pm}(x,k) \, f_2^{\pm}(x,k) \end{pmatrix}, \tag{47}$$

$$\Phi_2^{\pm}(x,k) = \begin{pmatrix} g_1^{\pm}(x,k) \, f_2^{\pm}(x,k) \\ \pm 2k g_1^{\pm}(x,k) \, f_2^{\pm}(x,k) \end{pmatrix}, \tag{48}$$

bo‘lsa, u holda barcha t lar uchun quyidagi tengliklar o‘rinli

$$2ik \frac{d}{dt} c_{21}^{\pm}(t,k) = \left\langle U_t(x,t), \Phi_1^{\pm}(x,t,k) \right\rangle, \left(\mathrm{Im} k \le 0, k \ne 0 \right), \tag{47}$$

$$2ik \frac{d}{dt} c_{11}^{\pm}(t,k) = \left\langle U_t(x,t), \Phi_2^{\pm}(x,t,k) \right\rangle, \ k \in R \setminus \{0\}. \tag{48}$$

Lemma 2. *Barcha t lar uchun ushbu tengliklar o‘rinli*

$$0 = \left\langle U_x(x,t), \Phi_1^{\pm}(x,t,k) \right\rangle, \ (\mathrm{Im} k \le 0, k \ne 0), \tag{49}$$

$$-4k^2 c_{11}^{\pm}(t,k) = \left\langle U_x(x,t), \Phi_2^{\pm}(x,t,k) \right\rangle, \quad k \in R \setminus \{0\}. \tag{50}$$

Lemma 3. *Ushbu*

$$T=\begin{pmatrix} 0 & 1 \\ -\dfrac{\partial^2}{\partial x^2}+4v-2\int\limits_{-\infty}^{x} v_\tau d\tau & 4u-2\int\limits_{-\infty}^{x} u_\tau d\tau \end{pmatrix}$$

operator

$$T^*=\begin{pmatrix} 0 & -\dfrac{\partial^2}{\partial x^2}+4v-2v_x\int_x^\infty d\tau \\ 1 & 4u-2u_x\int_x^\infty d\tau \end{pmatrix}$$

operatorning qo'shmasi bo'lsa, u holda har bir fiksirlangan t *larda ushbu tengliklar o'rinli*

$$\left\langle U_x(x,t), T\Phi_1^\pm(x,t,k)\right\rangle = \pm 2k\left\langle U_x(x,t), \Phi_1^\pm(x,t,k)\right\rangle,\ Imk\le 0,\ k\ne 0, \qquad (51)$$

$$\left\langle U_x(x,t), T\Phi_2^\pm(x,t,k)\right\rangle = \pm 2k\left\langle U_x(x,t), \Phi_2^\pm(x,t,k)\right\rangle,\ Imk\le 0,\ k\ne 0. \qquad (52)$$

Bu paragrafning asosiy natijasi quyidagi teoremadan iborat.

Teorema 3. *Agar* $v=v(x,t), u=u(x,t)$ va $\phi_1(x,t),\phi_2(x,t),...,\phi_{N^+}(x,t)$ *funksiyalar* (39)-(42) *masalaning yechimi bo'lsa, u holda*

$$L(t,\pm k)y \equiv -y_{xx}+v(x,t)y\pm 2ku(x,t)y=k^2y,\ x\in R,$$

Shturm-Liuvill operatorlari kvadratik dastasining sochilish nazariyasi berilganlari quyidagi tenglamalarni qanoatlantiradi

$$\frac{dR^\pm(t,k)}{dt}=\mp 4ik^2R^\pm(t,k), k\in R, \qquad (53)$$

$$\frac{dk_n^\pm(t)}{dt}=0, n=1,2,...,N^\pm, \qquad (54)$$

$$\frac{dC_n^+(t)}{dt}=-[4i(k_n^+)^2+2ik_n^+A_n(t)]C_n^+(t), n=1,2,...,N^+, \qquad (55)$$

$$\frac{dC_n^-(t)}{dt}=4i(k_n^-)^2C_n^-(t),\ n=1,2,...,N^-. \qquad (56)$$

Olingan natijalar sochilish nazariyasi berilganlarining vaqt bo'yicha evolyutsiasini to'liq aniqlaydi, bu esa (39)-(42) masalani teskari spektral masala usulida yechish imkonini beradi.

Endi (31) tenglamaning sochilish nazariyasi berilganlari yordamida $u(x,t)$ va $v(x,t)$ larni tiklash usulini ko'rsatamiz.

Bizga $u_0(x)$, $v_0(x)$ va $A_m(t), m=1,2,...,N^+$ lar berilgan bo'lsin.

1. Berilgan $u_0(x)$ va $v_0(x)$ funksiyalar yordamida $L(0,\pm k)$ operatorlar kvadratik dastasining sochilish nazariyasi berilganlarini topamiz

$$\{R^\pm(0,k),\ k\in R\setminus\{0\},\ k_n^\pm(0),\ C_n^\pm(0),\ n=1,2,...,N^\pm\};$$

2. Teorema 3 ning natijalaridan foydalanib, $L(t,\pm k)$ operatorlar kvadratik dastasining sochilish nazriyasi berilganlariga ega bo‘lamiz

$$\{R^{\pm}(t,k),\ k\in R\setminus\{0\},\ k_n^{\pm}(t),\ C_n^{\pm}(t),\ n=1,2,...,N^{\pm}\};$$

3. Sochilish nazriyasi berilganlari yordamida $r^{\pm}(x,t)$ funksiyalarni tuzib olamiz

$$r^{\pm}(x,t)=\sum_n (C_n^{\mp}(t))^{-1}e^{-ik_n^{\mp}(t)x}-\frac{1}{2\pi}\int_{-\infty}^{\infty}R^{\pm}(k,t)e^{ikx}dk.$$

4. Topilgan $r^{\pm}(x,t)$ funksiyalarni quyidagi integral tenglamalar sistemasiga qo‘yamiz

$$h^{+}(x,t)F^{-}(x,t)=h^{-}(x,t)F^{+}(x,t),\ \ F^{+}(x,t)F^{-}(x,t)=1, \qquad (59)$$

$$A^{+}(x,y;t)=F^{-}(x,t)r^{+}(x+y;t)+\int_x^{\infty}r^{+}(y+s;t)A^{-}(x,s;t)ds, \qquad (60)$$

$$A^{-}(x,y;t)=F^{+}(x,t)r^{-}(x+y;t)+\int_x^{\infty}r^{-}(y+s;t)A^{+}(x,s;t)ds \qquad (61)$$

bunda

$$h^{\pm}(x,t)=(F^{\pm}(x,t))_{xx}-2(A^{\pm}(x,x;t))_x+2A^{\pm}(x,x;t)(F^{\pm}(x,t))'(F^{\pm}(x,t))^{-1}. \qquad (62)$$

5. Har bir fiksirlangan $x\in R$ da (59),(60) masala yagona yechimga ega bo‘lishini ta’minlash maqsadida quyidagi shartni kiritamiz:

$$a^{\pm}(y,t)=\int_x^{\infty}r^{\pm}(y+s,t)a^{\mp}(s,t)ds\Rightarrow(a^{+}(y,t),\ a^{-}(y,t))=(0,0),\ \ (y\geq x).$$

6. (60),(61) da quyidagi almashtirishni bajaramiz:

$$A^{\pm}(x,y,t)=F^{\mp}(x,t)\alpha^{\pm}(x,y,t)+F^{\pm}(x,t)\beta^{\mp}(x,y,t),\ y\geq x,\ x\in R.$$

7. Bu almashtirish natijasida biz $F^{\pm}(x,t)$ lar qatnashmaydigan $\alpha^{\pm}$ va $\beta^{\mp}$ larga nisbatan yangi integral tenglamalar sistemasiga ega bo‘lamiz. Bu integral tenglamalar sistemasini yechib $\alpha^{\pm}$ va $\beta^{\mp}$ larni topamiz.

8. (59) tenglikga (62) va $F^{\pm}(x,t)=\exp(\mp iz(x,t))$ ni qo‘yib $z=z(x,t)$ ga nisbatan quyidagi tenglamaga ega bo‘lamiz:

$$z_x=2i\alpha^{+}(x,x,t)e^{iz}-2i\alpha^{-}(x,x,t)e^{-iz}-2i\beta^{+}(x,x,t)+2i\beta^{-}(x,x,t),\ z(\infty)=0,$$

va uni yechib $z(x,t)$ ni topamiz.

9. Natijada (39)-(42) masalaning yechimi bo‘lgan $u(x,t)$ va $v(x,t)$ funksiyalar quyidagi tengliklar orqali topiladi:

$$u(x,t)=\mp 2i(F^{\pm}(x,t))'(F^{\pm}(x,t))^{-1}, \qquad (63)$$

$$v(x,t)=h^{\pm}(x,t)(F^{\pm}(x,t))^{-1}. \qquad (64)$$

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafida quyidagi moslangan manbali Kaup-Boussinesq turidagi sistema

$$\begin{cases} v_t = v_{xxx} + 6uu_{xxx} + 18u_x u_{xx} - 6vv_x - 24vuu_x - 6v_x u^2 + \\ \quad + 2\sum_{m=1}^{N}\left[-u_x\varphi_m^2 + (k_m - 2u)\frac{\partial}{\partial x}\varphi_m^2\right], \\ u_t = u_{xxx} - 6vu_x - 6v_x u - 30u_x u^2 + \sum_{m=1}^{N}\frac{\partial}{\partial x}\varphi_m^2, \ x\in R, \ t>0, \\ \varphi_m'' + \left[k_m^2 - v - 2k_m u\right]\varphi_m = 0, \ m = 1,2,...,N \end{cases} \tag{65}$$

tez kamayuvchi funksiyalar sinfida ushbu

$$v(x,t)\big|_{t=0} = v_0(x), \ u(x,t)\big|_{t=0} = u_0(x), \ x\in R \tag{66}$$

boshlang‘ich va (41) normallovchi shartlarda integrallangan. Bunda $v_0(x)$ va $u_0(x)$ funksiyalar (42) shartni qanoatlantiradi.

Bu paragrafning asosiy natijasi quyidagi teoremadan iborat.

Teorema 4. Agar $v = v(x,t), \ u = u(x,t)$ va $\phi_1(x,t),\phi_2(x,t),...,\phi_{N^+}(x,t)$ *funksiyalar* (65),(66) *masalaning yechimi bo‘lsa, u holda*

$$L(t,\pm k)y \equiv -y_{xx} + v(x,t)y \pm 2ku(x,t)y = k^2 y, x\in R,$$

Shturm-Liuvill operatorlari kvadratik dastasining sochilish nazariyasi berilganlari quyidagi tenglamalarni qanoatlantiradi

$$\frac{dR^{\pm}(t,k)}{dt} = -8ik^3R^{\pm}(t,k), \ k\in R, \tag{67}$$

$$\frac{dk_n^{\pm}(t)}{dt} = 0, \ n = 1,2,...,N^{\pm}, \tag{68}$$

$$\frac{dC_n^{+}(t)}{dt} = [8i(k_n^{+})^3 + 2ik_n^{+}A_n(t)]C_n^{+}(t), \ \ n = 1,2,...,N^{+}, \tag{69}$$

$$\frac{dC_n^{-}(t)}{dt} = 8i(k_n^{-})^3C_n^{-}(t), \ \ n = 1,2,...,N^{-}. \tag{70}$$

Uchunchi bob **“Moslangan manbali diskret sinus-Gordon tenglamasini integrallash”** ga bag‘ishlangan.

Uchinchi bobning birinchi paragrafida diskret Dirak sistemasi turidagi sistema uchun qo‘yilgan sochilish nazariyasining to‘g‘ri va teskari masalalari haqida zaruriy ma‘lumotlar keltirilgan. Ushbu diskret Dirak sistemasi turidagi sistemani qaraymiz

$$\chi_{n+1} = L_n(z)\chi_n, n\in\mathbb{Z}, \tag{71}$$

$$L_n(z) = zP_n + \frac{1}{z}Q_n, z\neq 0, \tag{72}$$

bunda

$$P_n = \frac{1}{2}\begin{pmatrix} 1+\cos\theta_n & \sin\theta_n \\ \sin\theta_n & 1-\cos\theta_n \end{pmatrix}, \tag{73}$$

$$Q_n = \frac{1}{2}\begin{pmatrix} 1-\cos\theta_n & -\sin\theta_n \\ -\sin\theta_n & 1+\cos\theta_n \end{pmatrix}, \tag{74}$$

$$\theta_n = 0(mod\, 2\pi),\ |n| \to \infty. \tag{75}$$

Ushbu

$$\phi_n^+(z) \sim \begin{pmatrix} 1 \\ 0 \end{pmatrix} z^{-n},\ n \to -\infty, \tag{76}$$

$$\phi_n^-(z) \sim \begin{pmatrix} 0 \\ -1 \end{pmatrix} z^{n},\ n \to -\infty, \tag{77}$$

$$\psi_n^+(z) \sim \begin{pmatrix} 0 \\ 1 \end{pmatrix} z^{-n},\ n \to \infty, \tag{78}$$

$$\psi_n^-(z) \sim \begin{pmatrix} 1 \\ 0 \end{pmatrix} z^{n},\ n \to \infty \tag{79}$$

asimptotikalarni qanoatlantiruvchi, birlik aylana $\Gamma_1 = \{z : |z| = 1\}$ da aniqlangan Yost yechimlarini $\phi_n^+(z)$, $\phi_n^-(z)$ va $\psi_n^+(z)$, $\psi_n^-(z)$ lar orqali belgilaymiz, ular uchun quyidagi yoyilmalar o‘rinli

$$\phi_n^+(z) = a^+(z)\psi_n^- + b^+(z)\psi_n^+(z), \tag{80}$$

$$\phi_n^-(z) = -a^-(z)\psi_n^+ + b^-(z)\psi_n^-(z). \tag{81}$$

Ushbu $a^-(z)$ ($a^+(z)$) funksiya Γ_1 birlik aylananing ichkarisiga (tashqarisiga) analitik davom qiladi va cheklita oddiy nollarga ega $\pm z_k^-, (\pm z_k^+), k = 1,...,N$ va quyidagi munosabatlar o‘rinli

$$R^+\left(\frac{1}{z}\right) = R^-(z) = R(z) = \frac{b^-(z)}{a^-(z)},\ z_k^+ = \frac{1}{z_k^-} = \frac{1}{z_k},$$

$$C_k^- = -\frac{C_k^+ z_k^-}{z_k^+} = C_k,\quad C_k^\pm = \frac{b^\pm(z_k^\pm)}{\left.\frac{da^\pm(z)}{dz}\right|_{z_k^\pm}} + \frac{b^\pm(-z_k^\pm)}{\left.\frac{da^\pm(z)}{dz}\right|_{-z_k^\pm}}.$$

Ta’rif 3. Ushbu $\{R(z),\ z_k,\ C_k,\ k = \overline{1,N}\}$ jamlanmaga (71) masalaning sochilish nazariyasi berilganlari deyiladi.

θ_n potensial sochilish nazariyasi berilganlari orqali yagona aniqlanadi.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafida, diskret sinus-Gordon tenglamalar sistemasi uchun manba qurish algoritmi keltirib chiqarilgan.

Uchinchi bobning uchinchi paragrafida quyidagi moslangan manbali diskret sinus-Gordon tenglamalar sistemasini

$$\dot{\theta}_{n+1} - \dot{\theta}_n = 2\left(\sin\theta_{n+1} + \sin\theta_n\right) + \sum_{k=1}^{N}\left(f_{1,n+1}^k f_{1,n}^k + f_{2,n+1}^k f_{2,n}^k \right), \; n \in \mathbb{Z}, \qquad (82)$$

$$L_n(z_k, t) f_n^k = f_{n+1}^k, \; n \in \mathbb{Z} \qquad (84)$$

ushbu

$$\theta_n(t)\big|_{t=0} = \theta_n^0, \; n \in \mathbb{Z} \qquad (83)$$

boshlang‘ich va quyidagi

$$\left(\sum_{i=-\infty}^{\infty} \left(f_i^k \right)^T \left(Q_i - P_i \right) \sigma_2 f_i^k \right) = \beta_k(t), \qquad (85)$$

$$\left(\sum_{i=-\infty}^{\infty} \left(\hat{f}_i^k \right)^T \left(z_k^2 Q_i - P_i \right) \sigma_2 \hat{f}_i^k \right) = \hat{\beta}_k(t) \qquad (86)$$

normallashtirish shartlari bilan qaraymiz. Bunda $\beta_k(t)$, $\hat{\beta}_k(t)$ lar oldindan berilgan uzluksiz skalyar funksiyalar, $\sigma_i\,(i = 1,2,3)$ lar Pauli matritsalari va $\hat{f}_n^k = \sigma_2 f_n^k$. θ_n^0 funksiya (75) shartni qanoatlantiradi.

Ushbu paragrafning asosiy natijasi quyidagi teoremadan iborat.

Teorema 5. Agar $\{\theta_n(t), f_n^k(t)\}$, $n \in \mathbb{Z}$, $k = 1,\dots,N$ funksiyalar to‘plami (82)-(86) masalaning yechimi bo‘lsa, u holda $L_n(z,t) = zP_n(t) + \frac{1}{z} Q_n(t)$ operatorning sochilish nazariyasi berilganlari quyidagi tenglamalarni qanoatlantiradi

$$\dot{R}(z,t) = 2\frac{z^2+1}{z^2-1} R(z,t), \; |z| = 1, \; z \neq \pm 1,$$

$$\dot{z}_k(t) = 0, \; k = 1,\dots,N,$$

$$\dot{C}_k(t) = \left(2\frac{z_k^2+1}{z_k^2-1} - \frac{z_k^2-1}{4z_k}\beta_k(t) - \frac{z_k^2-1}{2z_k(z_k^2+1)}\hat{\beta}_k(t) \right) C_k(t), \; k = 1,\dots,N.$$

Olingan natijalar (82)-(86) masalani teskari masalalar usulida yechish imkonini beradi.

Endi Teorema 5 ning natijasidan foydalanib (82)-(86) masalani yechish algoritmini keltiramiz.

Bizga $\theta_n^0, n \in \mathbb{Z}$ va $\beta_k(t)$, $\hat{\beta}_k(t)$, $k = 1,\dots,N$ funksiyalar berilgan bo‘lsin.

1. Berilgan $\theta_n^0, n \in \mathbb{Z}$ orqali to‘g‘ri masalani yechib $L_n(0)$ operator sochilish nazariyasining berilganlarini topamiz

$$\left\{ R(z,0), \; z_k(0), \; C_k(0), \; k = \overline{1,N} \right\}.$$

2. Teoremaning natijalaridan foydalanib $L_n(z,t)$ operatorning sochilish nazariyasining berilganlarini topamiz

$$\left\{ R(z,t), \; z_k(t), \; C_k(t), \; k = \overline{1,N} \right\}.$$

3. Topilgan sochilish nazariyasining berilganlari orqali ushbu $F^{\pm}(m,t)$ funksiyani tuzib olamiz

$$F^{\pm}(m,t)=\frac{1}{2\pi i}\oint_{\Gamma_1}R^{\pm}(z,t)z^{\mp 2m-1}dz\pm\sum_{k=1}^{N}C_k^{\pm}(t)(z_k^{\pm}(t))^{\mp 2m-1},$$

$$F^{-}(m,t)=F^{+}(m,t).$$

4. $F^{\pm}(m,t)$ funksiyalarni ushbu

$$K_2^{+}(n,m,t)-F^{-}(m,t)-\sum_{n'=n+1}^{\infty}K_1^{+}(n,n',t)F^{-}(m+n'-n,t)=0,(m>n),$$

$$K_1^{+}(n,m,t)+\sum_{n'=n+1}^{\infty}K_2^{+}(n,n',t)F^{-}(m+n'-n,t)=0,\ (m>n),$$

tenglamalar sistemasiga qo‘yamiz va uni yechib $K_1^{+}(n,m,t)$ va $K_2^{+}(n,m,t)$ larni topamiz.

5. $\theta_n(t)$ yechimni quyidagi tengliklardan aniqlaymiz

$$K_2^{+}(n,n+1,\,t)=-K_1^{-}(n,n+1,\,t)=tg\left\{\frac{1}{2}\left[\theta_n(t)-\theta_{n+1}(t)\right]\right\},$$

$$K_1^{+}(n,n+1,\,t)=K_2^{-}(n,n+1,\,t)=-\sum_{k=n}^{+\infty}\gamma(k+1,k,t)\gamma(k+2,k+1,t),$$

$$\gamma(j,n,t)=tg\left(\frac{1}{2}\left[\theta_j(t)-\theta_n(t)\right]\right).$$

6. Yost yechimi uchun ushbu

$$\psi_n^{\pm}(z)=z^{\mp n}\prod_{j=n}^{\infty}\alpha(j+1,\,j)\Omega(n)\times\sum_{j=0}^{\infty}K^{\pm}(n,n+j)z^{\mp 2j},$$

tasvirdan foydalanib $f_n^k(t)$ vektor-funksiyalarni tuzamiz.

Muallif o‘zining ilmiy rahbari, f.-m.f.d. Babajanov Bazar Atajanovichga doimiy e’tibori hamda mazkur dissertatsiya natijalarini muhokamasidagi qimmatli maslahatlari uchun samimiy minnatdorchiligini bildiradi.

XULOSA

Dissertatsiya ishining birinchi bobida vaqtga bog‘liq koeffitsiyentli hadlarga ega bo‘lgan Kaup-Boussinesq sistemasi va yuklangan hadli Kaup-Boussinesq turidagi sistemaga qo‘yilgan Koshi masalasi tez kamayuvchi funksiyalar sinfida Shturm-Liuvill operatorlari kvadratik dastasi uchun qo‘yilgan teskari masala usuli yordamida integrallangan.

Ikkinchi bobda moslangan manbali Kaup-Boussinesq tenglamalar sistemasiga qo‘yilgan Koshi masalasini sochilish nazariyasining teskari masalalar usulidan foydalanib yechish hamda moslangan manbali Kaup-Boussinesq turidagi tenglamalar sistemasining to‘la integrallanuvchanligini isbotlangan.

Dissertatsiya ishining uchinchi bobida diskret sinus-Gordon tenglamasi uchun moslangan manba qurilgan va moslangan manbali diskret sinus-Gordon tenglamasi “tez kamayuvchi” funksiyalar sinfida to‘la integrallanuvchanligini isbotlangan.

Tadqiqotning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

vaqtga bog‘liq qo‘shimcha hadlarga ega bo‘lgan Kaup-Boussinesq tenglamalar sistemasini yechish algoritmi keltirib chiqarilgan;

yuklangan manbali Kaup-Boussinesq tipidagi tenglamalar sistemasi uchun sochilish nazariyasi berilganlarining vaqt bo‘yicha evolyutsiyasi aniqlangan;

moslangan manbali Kaup-Boussinesq tenglamalar sistemasiga qo‘yilgan Koshi masalasi sochilish nazariyasining teskari masalasi usulidan foydalanib yechilgan;

moslangan manbali Kaup-Boussinesq tipidagi tenglamalar sistemasining to‘la integrallanuvchanligi isbotlangan;

diskret Dirak turidagi sistema uchun teskari spektral masala usulini qo‘llab diskret sinus-Gordon tenglamasi uchun manba qurish algoritmi keltirib chiqarilgan;

moslangan manbali diskret sinus-Gordon tenglamasiga qo‘yilgan Koshi masalasi diskret Dirak turidagi sistema uchun qo‘yilgan teskari spektral masala usulidan foydalangan holda yechilgan.

SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREE PhD.03/30.12.2019.FM.55.01 URGENCH STATE UNIVERSITY

URGENCH STATE UNIVERSITY

Azamatov Azizbek Shavkatovich

INTEGRATION OF THE SYSTEMS OF KAUP-BOUSSINESQ AND DISCRETE SINE-GORDON EQUATIONS WITH A SELF-CONSISTENT SOURCE IN THE CLASS OF RAPIDLY DECREASING FUNCTIONS

01.01.02 – Differential Equations and Mathematical Physics

ABSTRACT OF DISSERTATION OF THE DOCTOR OF PHILOSOFHY (PhD) ON PHYSICAL AND MATEMATICAL SCIENCES

URGENCH – 2023

The theme of dissertation of doctor of philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences was registered at the Supreme Attestation Comission at the Ministry of Higher education, science and innovations of the Republic of Uzbekistan under number B2022.3.PhD/FM746.

Dissertation has been prepared at Urgench State University.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (uzbek, english, russian (resume)) on the website (www.ik-mat.urdu.uz) and the "ZiyoNet" Information and educational portal (www.ziyonet.uz).

Scientific supervisor:	**Babajanov Bazar Atajanovich** Doctor of Physical and Mathematical Sciences
Official opponents:	**Yakhshimuratov Alisher Bekchanovich** Doctor of Physical and Mathematical Sciences
	Baltayeva Umida Ismoilovna Doctor of Physical and Mathematical Sciences
Leading organization:	**Samarkand State University**

Defense will take place 23 august 2023 at 14:00 the meeting of Scientific Council number PhD.03/30.12.2019.FM.55.01 at Urgench State University. (Address: Kh.Alimdjan str.14, Urgench, 220100, Uzbekistan, Ph.: (+99862) 224-66-11, fax: (+99862) 224-67-00, e-mail: ik-mat.urdu@umail.uz).

Dissertation is possible to review in Information-resource centre at Urgench State University (is registred №____). (Address: Kh.Alimdjan str.14, Urgench, 220100, Uzbekistan, Ph.: (+99862) 224-67-00).

Abstract of dissertation sent out on "____" ____________ 2023 year

(Mailing report №______ on "____"____________2023 year)

B.I.Abdullayev
Chairman of Scientific council on award of scientific degree, Dr.ph.m.s

A.A.Reyimberganov
Scientific secretary of Scientific council on award of scientific degree, C.ph.m.s.

S.A.Imomqulov
Chairman of Scientific seminar under scientific council on award of scientific degree, Dr.ph.m.s.

INTRODUCTION (abstract of the PhD thesis)

The actuality (relevance) and demand of the theme of the dissertation. Many scientific and practical researches, those carried out on a global scale, involve the integration of systems of nonlinear evolutionary equations and their discrete analogs, which have important practical applications in mathematical physics. In particular, the integration of analogues of Kaup-Bousinesq (KB) and discrete sine-Gordon (sG) systems of equations in the class of rapidly decreasing functions by the method of inverse problems and finding their explicit soliton-like solutions are one of the current issues.

